



YOSH AVLODNING VATANPARLIK RUHIDA SHAKLLANISHIDA  
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING O'RNINI VA AHAMIYATI

**Masharipov Zafarbek Normatovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIVning*

*Xorazm akademik litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada yosh avlodning vatanparlik ruhida shakllanishida pedagogika va psixologiyaning o'rnini va ahamiyati haqida yoritilgan.*

**АННОТАЦИЯ:** *В статье раскрывается роль и значение педагогики и психологии в формировании молодого поколения в духе патриотизма.*

**Abstract:** *The article describes the role and importance of pedagogy and psychology in the formation of the young generation in the spirit of patriotism.*

Hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi, ta'lim tizimining tarbiyaviy yo'g'rilganligi holatiga, jamiyat a'zolarida vatanparvarlik, ma'naviy madaniyat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllantirilganligida, mafkuraviy immunitet hosil qilinganligida o'z ifodasini topadi. Milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish maqsadida, davom etayotgan ishlar, xalq ta'limining tubdan isloh qilinayotgani O'zbekistonda vatanparvar, ijtimoiy faol, ma'naviyati yetuk shaxslarni tarbiyalash, xalq xo'jaligi, boshqaruv idoralari, fan-texnika va madaniyatning barcha sohalari uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash imkoniyatining vujudga kelishi bilan belgilanadi.

Taraqqiy qilib borayotgan bugungi zamonda mamlakatimizda ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifsohasini rivojlantirish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazish, o'z vataniga, el-u yurtiga sadoqatli fuqarolarni tarbiyalash ijtimoiy zarurat sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma'naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir.

Vatanparvarlik - o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana

yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi – insonlarga kerakli qadriyatlarimiz Uchinchi renessans privordida barpo etilmoqda.

Tarixiy ildizim shundan dalolat beradi-ki, bizni boy tariximiz va o'chmas mangulikga dahldor qahramonlilarni bizni yoshlar ma'naviyatida aks etmoqda.

Vatanparvarlik - (yunon tilidan patris- vatan) - axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u, uning mazmuni vatanga muhabbat, uning o'tmishi va buguni bilan faxrlanish, o'z manfaatlarini mamlakat manfaatlariga bo'ysundirishga tayyorlik, xalq manfaatlarini himoya qilishga intilishdir.

Psixolog I.F.Xarlamov vatanparvarlikni o'zaro bog'liq bo'lgan axloqiy tuyg'ular va xulq – atvor fazilatlarini majmui, shu jumladan vatanga muhabbat, vatan ravnaqi yo'lida faol mehnat qilish, xalqning mehnat an'alariga rioya qilish va ko'paytirish, o'z ona yurtining tarixiy obidalarini va urf-odatlarini hurmat qilish; ona yurtga sadoqat, vatan sha'ni va qadrqimmatini mustahkamlashga intilish, uni himoya qilishga tayyorlik va qobiliyat, harbiy jasorat, jasorat va fidoyilik, xalqlar birodarligi va do'stligi, irqiy va milliy adovatga toqat qilmaslik, xalqning urf-odatlarini va madaniyatiga hurmat, boshqa mamlakatlar va xalqlar, ular bilan hamkorlik qilish istagi – deb ta'rif beradi.

Zamonaviy jamiyatda vatanparvarlik tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bu jarayonning maqsadi - o'z Vatani sevadigan, Vatanga sadoqatli, unga o'z mehnati bilan xizmat qilishga va o'z manfaatlarini himoya qilishga tayyor vatanparvar shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Shunday qilib, mening fikrimcha vatanparvarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'z oilasiga, inson tug'ilib o'sgan joylariga bog'liqlik hissi;
- boshqa odamlar va vatan manfaatlariga g'amxo'rlik qilish istagi;
- Vatan oldidagi burchini anglash, uning sha'ni va qadr-qimmatini, erkinligi va mustaqilligini himoya qilish, Vatanni himoya qilishga shaylik;
- fuqarolik tuyg'ulari va Vatanga sadoqatning namoyon bo'lishi;
- o'z mamlakatining ijtimoiy va madaniy yutuqlari bilan faxrlanish;
- o'z Vatani, davlat ramzlari, o'z xalqi bilan faxrlanish;
- o'z katta va kichik Vatanning tarixiy o'tmishiga, xalqiga, urf-odat va an'alariga hurmat;
- vatan va uning xalqi taqdiri, kelajagi uchun mas'uliyat, o'z mehnatini fidoyilik bilan fidokorona qilish, Vatan qudratini mustahkamlash va gullab-yashnash qobiliyatida ifodalangan;
- insonparvarlik, mehr-oqibat, umuminsoniy qadriyatlar.

Vatanparvarlik tarbiyasini tarbiyaviy ishning shartli ravishda mustaqil yo'nalishi sifatida ajratib ko'rsatish, uning boshqa sohalar (fuqarolik, axloqiy, mehnat, estetik va boshqa ta'lim turlari) bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash kerak, bu

ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga qaraganda ancha murakkab tushunchadir. Uning o'ziga xos pedagogik va psixologik mexanizmlari mavjud. Bu shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq:

- birinchidan, vatanparvarlik, ayniqsa, uning kelib chiqishini yodda tutsak, tuyg'u sifatida vujudga keladi va rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy boyitish orqali tobora ijtimoiylashib, yuksalib boradi;

- ikkinchidan, vatanparvarlik tuyg'usining yuksak darajada rivojlanishini anglash uning voqeligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yanada konkret ma'noda faol ijtimoiy faoliyatda, sub'ektning vatan manfaati yo'lida amalga oshirayotgan harakatlarida namoyon bo'ladi;

- uchinchidan, vatanparvarlik o'z mohiyatiga ko'ra chuqur ijtimoiy hodisa bo'lib, nafaqat jamiyat hayotining bir jihati, balki uning mavjudligi va rivojlanishining manbai bo'lib, jamiyat hayotiyliigi, ba'zan esa omon qolish atributi vazifasini bajaradi;

- to'rtinchidan, shaxs vatanparvarlikning birlamchi sub'ekti, ustuvor ijtimoiy - axloqiy vazifasi bo'lib, u o'z vataniga tarixiy, madaniy, milliy, ma'naviy va boshqa mansubligini anglash, uning mazmuni va strategiyasini belgilab beruvchi oliy tamoyildir;

- beshinchidan, haqiqiy vatanparvarlik shaxsning ma'naviyatida mujassam bo'ladi. Shaxsiy kuzatish va tajribalarimga tayngan holda shuni aytishim mumkinki, har bir talaba o'zida mustaqil ravishda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantira oladi.

Buning uchun esa quyidagi kichik qoidalarga rioya qilish kifoya deb o'ylayman. O'z xalqingni sevish uchun ularni bilish kerak; inson o'z xalqi tarixini ongli ravishda o'rganar ekan, o'zida vatanparvarlikni tarbiyalaydi.

Vatanparvarlik o'z mamlakatining yutuqlari bilan faxrlanishni o'z ichiga oladi; jamiyat va mamlakat hayotining barcha jabhalari bilan bog'liq axborotlarga qiziqish vatanparvarlik tuyg'usining rivojlanishi va namoyon bo'lishiga zamin yaratadi. Siz o'z mamlakatingizda sayohat qiling. Vatanni bilish va sevishning eng yaxshi usuli - oilaviy ta'lim. O'z yurtiga mehr va ehtirom ko'rsatadigan, bu tuyg'ularni farzandlari qalbiga singdirayotgan ota-onalar farzandlarini vatanparvar qilib tarbiyalaydi.

Xo'sh ushbu pedagogik-psixologik usullarni qo'llash orqali biz qanday yutuqlarga erishishimiz mumkin? - degan savol tug'ulishi mumkin. Ushbu savolga javob quyidagicha:

- vatanparvarlik - insonning orqasida uning yuzlab avlodlari, ajdodlari ko'rinmas holda turishini anglashidan kuch beradi;

- vatanparvarlik - o'z yurtining yutuqlari va muvaffaqiyatlarini anglashdan quvonch baxsh etadi; - vatanparvarlik - oila, xalq va vatan uchun mas'uliyat yuklaydi;

- vatanparvarlik ishonch beradi - mamlakat taqdiriga daxldorlik hissi tufayli, o'z mamlakati manfaati uchun harakat qilish;

- vatanparvarlik - mamlakat tarixi, an'analari va madaniyatiga hurmat ko'rsatadi.

Bundan tashqari xalq pedagogikasida keng qo'llaniladigan quyidagi tarbiya usullari orqali ham talaba yoshlar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini faol singdirish mumkin: a) ishontirish, b) mashq qildirish va mustaqil ishlash; c) kuzatish; d) rag'batlantirish; e) o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna.

Psixologik jihatdan olib qaraganda tuyg'ular doimiy motivatsion qiymatga ega bo'lgan va faoliyatning umumiy yo'nalishi uchun javobgar bo'lgan hodisalarga qaratilgan. K.K.Platonov tuyg'ularning psixologik tuzilishiga his-tuyg'ular va tushunchalar kiradi, deb ta'kidlaydi.

Demak, insonda vatanga muhabbat tuyg'usi paydo bo'lishi uchun u vatan tushunchasiga yaqin bo'lishi kerak, busiz, masalan, sog'inch, faqat tuyg'u. Tuyg'ularning kontseptual komponenti ularning tarkibidagi his-tuyg'ularni xatti-harakatlarda namoyon bo'ladigan munosabatlarga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, psixologik jihatdan vatanparvarlik - yosh avlodning olamga qadriyat munosabatining zarur tarkibiy qismi bo'lib, Vatanni - shaxsiy hayotining bir bo'laki sifatida, uning taqdiriga hamda kelajagiga munosib voris bo'lib tarbiya topishi bugungi zamonaviy pedagoglarni oldida turgan asosiy vazifa kelajak avlodni shu qadriyatlarga hurmat va dahldorlik hissi bilan tarbiyalashdan iborat.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017- yil 5-iyundagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida»gi qonun (O'RQ-406-son).

3. Квасных Г. С. Саржанова А. Н. Патриотическое воспитание студентов в современном вузе // Вектор науки ТГУ. Сер. Педагогика, психология. 2015. № 1. С. 87-90.

4. Паутов В. Г. Патриотическое воспитание подростков в процессе физкультурно-спортивной деятельности: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01, 13.00.04. Челябинск, 2010. 170 с